

---

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida “Fayz” mahallasidagi ichki yo’llar ravon bo’ldi

Qo’shtepa tumanidagi “Fayz” mahalla fuqarolar yig’inida 726 ta xonadonda 4023 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada 5 ta ko’cha mavjud.

“Tashabbusli byudjet” loyihasining joriy yilgi birinchi bosqichida mahallaning ta’mirga muhtoj bo’lgan ichki yo’llarni ta’mirlash bilan bog’liq tashabbuslari besh ming taga yaqin ovoz bilan g’olib deb topilgan edi.

Ayni kunlarda, tashabbus natijasida mahallaning Zarafshon, Oydinko’l, Yangiturmush, Fayzlik ko’chalarining 3000 metr ichki yo’llari astfaltlashtirildi.











2024-09-17 07:50:35